

CHO‘LPON VA FITRATNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

Oqila Ahmadjonova

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

Nozima Sobirjonova

FarDU filologiya fakulteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Cho‘lpon adabiy-tanqidiy merosining o‘rganilishi. Cho‘lpon shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, publitsist bo‘lish bilan birga munaqqid, o‘ziga xos qiyofali san‘atshunos edi. Uning adabiy-tanqidiy maqolalari xalq ma‘naviyatini shakllantirishda, adabiy-estetik didni o‘stirishda, badiiy adabiyotimiz taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Yangi o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi tarixini Cho‘lpon adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur etish qiyin.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, Fitrat, jadidchilik, adabiy tanqid, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, jaholat, mustamlakachilik, adolatsizlik, ayollar erkinligi, ta‘lim islohoti.

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti va ijtimoiy tafakkurida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davr jadidchilik harakati bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatni yangilash, ilm-ma‘rifatni rivojlantirish va milliy ongni uyg‘otish asosiy vazifaga aylandi. Shu davrda Abdulhamid Cho‘lpon va Abdurauf Fitrat kabi buyuk ijodkorlar yetishib chiqdi. Ular o‘z asarlarida jamiyat muammolarini tanqidiy yoritib, xalqni taraqqiyot sari yetaklashga harakat qildilar. Cho‘lpon ijodi o‘zining kuchli badiiy va tanqidiy ruhi bilan ajralib turadi. U jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, inson erkinligining cheklanishi va xalqning og‘ir turmushini chuqur tasvirlaydi. Yozuvchi mustamlakachilik siyosatini keskin tanqid qilib, xalqning erksiz hayotini ochib beradi. Uning “Kecha va kunduz” romanida boy va kambag‘al o‘rtasidagi tafovut, inson huquqlarining poymol etilishi va jamiyatdagi notenglik yorqin aks ettirilgan. Cho‘lpon jaholat va savodsizlikni jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri deb hisoblaydi. U xalqni ilm olishga, o‘z haq-huquqini anglashga chaqiradi. Uning asarlarida ma‘rifatga intilish, uyg‘onish va erkinlik

g'oyalari ustuvor o'rin egallaydi. Shu bilan birga, yozuvchi ayollar taqdiriga alohida e'tibor qaratadi. Ayollarning huquqsizligi, majburiy turmush va erksizlikni tanqid qilib, jamiyat taraqqiyoti ayol erkinligi bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Fitrat ijodi esa keng qamrovli va chuqur tahliliy xarakterga ega. U jamiyatdagi muammolarni faqat tasvirlab qolmay, balki ularni ilmiy asosda tahlil qiladi. Fitrat avvalo eski ta'lim tizimini tanqid qiladi. U madrasalardagi eskicha o'qitish usullari zamon talablariga javob bermasligini ta'kidlab, zamonaviy ilm-fan asosida ta'limni rivojlantirish zarurligini ilgari suradi.

Fitrat diniy aqidaparastlikka ham tanqidiy yondashadi. U dinni noto'g'ri tushunish va undan noto'g'ri foydalanish jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilishini aytadi. Uning fikricha, haqiqiy din ilm-fan va taraqqiyotga zid emas, aksincha, uni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, Fitrat milliy uyg'onish g'oyasini ilgari surib, xalqni o'zligini anglashga, mustaqillik va erkinlik uchun kurashishga undaydi. Fitrat jamiyatdagi befarqlik, sustlik va qo'rqqoqlikni keskin tanqid qiladi. U har bir insonni faol, ongli va mas'uliyatli bo'lishga chaqiradi. Uning tanqidiy qarashlari ko'proq ilmiy, publitsistik va falsafiy uslubda ifodalanadi. Cho'lpon va Fitratning tanqidiy qarashlari o'zaro yaqin bo'lib, ular bir maqsadga xizmat qiladi — jamiyatni isloh qilish va xalqni uyg'otish. Har ikkala adib ham jaholat va savodsizlikni tanqid qiladi, ilm-ma'rifatni rivojlanishning asosiy yo'li deb biladi. Shu bilan birga, ularning uslubi farqlanadi: Cho'lpon badiiy obrazlar va inson ruhiyati orqali ta'sir etsa, Fitrat ilmiy va tahliliy yo'l bilan fikr yuritadi. Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini tuzib, bibliografiyasini e'lon qilgan N.Yo'ldoshev ko'rsatishicha, shoir 1914-1937-yillar mobaynida chop etgan adabiytanqidiy maqolalar soni 70 ga yaqindir. Shu ma'lumotning o'ziyoq Cho'lponni munaqqid sifatida o'rganish muhim ekanini ko'rsatadi. To'g'ri, gap bu o'rinda sonsanoqdagina emas, maqolalarning ilmiynazariy qimmatini haqida, albatta. Cho'lpon maqolalari esa, eng awalo, ana shu jihati bilan qadrlidir. «Adabiyot yashasa, millat yashar». 1913-yilda Cho'lpon I.G'aspiraliga maktub yozgan va «Tarjumon»da bosilgan. «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yil 4-iyun sonida Cho'lponning dastlabki tanqidiy asarlaridan biri - «Adabiyot nadur?» degan maqolasi e'lon qilinadi. Uni yozganida Cho'lpon 16 yoshda edi. Maqola shaklan ixcham bo'lsa-da,

mazmuni g‘oyat teran. 16 yashar o‘smirning adabiyot haqida shunday tiyraklik bilan fikr yuritishi chindan-da, uning yuksak iste’dodidan dalolat beradi. Cho‘lpon bu yoshda yozgan she‘rlari ichida teranlikda, chuqurlikda ushbu maqola bilan bahslasha, yoki tenglasha oladiganini uchratish qiyin (biri badiiy, ikkinchisi publitsistik mohiyatli bo‘lsa-da). Shunga ko‘ra, ehtimol, she‘riyatdan ham ko‘ra adabiy tanqidga qiziqish va u haqdu astoydil o‘y-fikrga berilish Cho‘lponda ertaroq kechgan bo‘lsa, ajab emas, degan taxmin ham bo‘lishi mumkin. Burilish pallalarida har bir xalqning buyuk farzandlari, buyuk adiblar ana shu savolga javob izlagan va hatto, xuddi shu sarlavha bilan maqolalar e‘lon qilgan. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Zéro, Cho‘lpon ham o‘zbek xalqining ana shunday buyuk farzandlaridan biri edi. O‘z davrida Cho‘lponning bir qancha zamondoshlari ham «Adabiyot, san’at nima?» degan savollarga javob izladi. Ozar, qozoq, tatar adabiyotlarida bu masalalar atrofida tez-tez fikr yuritilgani ma’lum. Cho‘lponning adabiyot haqidagi ilk qarashlari Cho‘lponning adabiy tanqidga qiziqishi juda erta boshlangan. 16 yoshida yozilgan “Adabiyot nadur?” maqolasi uning teran tafakkuridan dalolat beradi. Bu maqola mazmunan ixcham bo‘lsa-da, undagi fikrlarning yetukligi Cho‘lponning adabiyot mohiyatini chuqur his qilganini ko‘rsatadi. U adabiyotning ijtimoiy vazifasini quyidagicha belgilaydi: adabiyot — millatni uyg‘otuvchi ma’naviy kuch, xalqning ma’naviy poklanishiga xizmat qiluvchi vosita, jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etuvchi qudratli omil. Shoirning mashhur “Adabiyot yashasa — millat yashar” degan xulosasi o‘zbek ma’rifatparvarlik tafakkuridagi eng muhim g‘oyalardan biridir. Cho‘lpon adabiyotni inson ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘laydi. Uning fikricha, adabiyot yarador ko‘ngilga ruh bag‘ishlaydigan, ma’rifat suvi bilan qalbni tozalaydigan, insofoniylilikni tarbiyalar ekan. Bu qarashlar Cho‘lponni romantik tafakkur egasi sifatida emas, balki adabiyotning ma’naviy tarbiya kuchini chuqur anglagan estetik mutafakkir sifatida namoyon etadi.

Shuningdek, u o‘zbek ziyolilarining millat uchun mas’uliyatini alohida ta’kidlaydi: “Bizga ko‘p teatr, roman kitoblari yozmoq kerakdurkim, bu qarz bir hovuch ziyolilarg‘a tushadir”. “Ulug‘ hindi” haqida Tagor tajribasi va yangi adabiy yo‘l izlash “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida chop etilgan “Ulug‘ hindi” maqolasi Cho‘lponning jahon adabiyotini chuqur o‘rganishga intilganini ko‘rsatadi. U Tagor ijodini o‘rganib, o‘zbek adabiyotining

rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan bir necha xulosalarga keladi: Tagor Sharqning ma'naviy qudratini dunyoga tanitgan buyuk iste'dod. Uning asarlarida Sharq falsafasi bilan G'arbning realizmi uyg'unlashgan. Yangi o'zbek adabiyoti ham xuddi shu yo'lni — Sharqning ruhiyati va G'arb badiiy tajribasi sintezini tanlashi kerak. Cho'lponni ham Sharqqa xos ko'tarinkilik, ham G'arbgga xos psixologik realizm jalb qilgan. U Tagor misolida o'zbek adabiyotining “yo'lsizlik”dan qutilish imkoniyatini ko'radi. Uning nazarida yangi adabiyot: mazmun bilan shaklni uyg'unlashtirgan, milliylik va jahoniylikni birlashtirgan, inson ruhining teran qatlamlarini yoritgan bo'lishi lozim. U Tagor milliy ruh va universallikni uyg'unlashtira olganini yuqori baholaydi. Cho'lponning nazarida yangi o'zbek adabiyoti Sharqning estetik an'analari bilan G'arbning realizmini uyg'unlashtirgan holda taraqqiy topishi kerak edi. “Sho'ro hukumati va sanoye' nafisa” maqolasi talqinida Cho'lponning ushbu maqolasi o'z davri madaniy hayotini chuqur tahlil qiluvchi, san'atning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini qayta ko'rib chiqishga undovchi fikrlar bilan boy. U Sovet hokimiyati tomonidan olib borilayotgan “madaniy inqilob” siyosatini kuzatar ekan, uning san'atga bo'lgan munosabatini ham ijobiy, ham tanqidiy nuqtai nazardan baholaydi.

Muallif avvalo san'atni jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida ko'radi. Uning fikricha, san'at va ma'rifat — xalqni uyg'otuvchi eng kuchli vosita. Sovet hukumatining san'atni keng ommaga yoyish, xalqni madaniylashtirish borasidagi tashabbuslari ma'lum darajada maqtovga sazovor. Chunki uzoq vaqtga qadar san'at faqat ziyolilar, ma'lum tabaqa egaligida bo'lib kelgan. Biroq Cho'lponning asosiy e'tirozi shundaki, yangi siyosiy tuzum san'atni faqat tashviqot va targ'ibot quroliga aylantirmoqchi bo'ladi. San'atning asl mohiyati — insonning ruhiy olamini yuksaltirish, estetik didini o'stirish, haqiqatni tarannum etishdir. Agar san'at faqat siyosiy buyurtma asosida yaratilsa, u o'zining tabiiy erkinligini yo'qotadi, bir yoqlama fikrga xizmat qiluvchi vositaga aylanadi. Cho'lpon shuningdek, majburlab madaniylashtirish siyosatini ham tanqid qiladi. Chinakam san'at yaratish uchun ijodkor erkin fikrlashi, ruhiy mustaqillikka ega bo'lishi lozim. San'atning rivoji faqat tashqi shior yoki ma'muriy buyruqlar orqali emas, balki millat ruhining uyg'onishi bilan bog'liq. Maqolada shoir san'atkorning jamiyat oldidagi mas'uliyati,

ijodning axloqiy poydevori va san'atning tarbiyaviy qudrati haqida ham mulohaza yuritadi. San'at —insonni inson qiluvchi kuch, jamiyatning ma'naviy ustuni, millatning qalbidagi nurni saqlab turuvchi vositadir.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon va Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari o'zbek adabiyoti va ijtimoiy tafakkurida muhim o'rin tutadi. Ular o'z asarlari orqali jamiyatdagi muammolarni ochib beribgina qolmay, balki xalqni ilm-ma'rifatga, erkinlikka va taraqqiyotga undaganlar. Ularning merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cho'lpon. "Adabiyot nadur?" — Toshkent: O'zdavnashr, 1991.
2. Cho'lpon. Tanlangan asarlar. 2-jild. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat, 2017.
3. Tagor, R. Gitanjali (O'zbek tilidagi tarjimalar). — Toshkent: Yozuvchi, 1985.
4. Tagor, R. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
5. Qosimova, N. Cho'lpon adabiy tanqidchilik faoliyati. — Toshkent: Fan, 2001.
6. Karimov, N. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1999.
7. B. Nazarov, A. Rasulov, Q. Qahramonov, Sh. Axmedova. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. — T.: 2012.